



**TIJORAT BANKLARNING QIMMATLI QOG'OZLAR BOZORIDAGI
FAOLIYATIDA XORIJ TAJRIBASI**

Davletova Dilnoza Nodir qizi

Muhammad Rizo Ogahiy nomidagi ijod

maktabi oliy toifali o'qituvchisi

E-mail: Dilnizad59@gmail.com

Annotatsiya: Banklarning qimmatli qog'ozlar bozoridagi faoliyatining xorijiy tajribasini o'rganish muhimdir, chunki bu tajribalar moliyaviy barqarorlikni ta'minlash, risklarni boshqarish, likvidlikni oshirish va samaradorlikni yuksaltirish uchun qimmatli amaliyotlarni namoyon etadi. O'z navbatida ushbu bozor tomonidan taqdim etiladigan barcha imkoniyatlarni o'rganish bu bozorda kapital jalb qilishning zamonaviy usullarini tahlil qilish zaruriyatini ham keltirib chiqardi.

Kalit so'zlar: Qimmatli qog'ozlar bozori, investitsion jozibadorlik, kapital, moliyaviy instrument, moliya bozori, valyuta, valyuta kursi, foyda, inflyatsiya, biznes, dividend, emissiya, obligatsiya, likvidlilik, oddiy aksiya.

**ЗАРУБЕЖНЫЙ ОПЫТ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ КОММЕРЧЕСКИХ
БАНКОВ НА РЫНКЕ ЦЕННЫХ БУМАГ**

Давлетова Дилноза Нодир кизи

Преподаватель высшей категории

Школы творчества имени Мухаммада Ризы Огахий

E-mail: Dilnizad59@gmail.com

Аннотация: Изучение зарубежного опыта деятельности банков на рынке ценных бумаг представляется важным, поскольку он демонстрирует ценные практики обеспечения финансовой устойчивости, управления рисками, повышения ликвидности и повышения эффективности. В свою очередь, изучение всех возможностей, предоставляемых этим рынком,



также привело к необходимости анализа современных методов привлечения капитала на этом рынке.

Ключевые слова: Фондовый рынок, инвестиционная привлекательность, капитал, финансовый инструмент, финансовый рынок, валюта, обменный курс, прибыль, инфляция, бизнес, дивиденд, эмиссия, облигация, ликвидность, обыкновенные акции.

THE IMPORTANCE OF ECOLOGICAL INNOVATIONS IN ENSURING SUSTAINABLE ECONOMIC GROWTH IN THE REGION

Davletova Dilnoza Nodir kizi

Higher category teacher of the

Muhammad Riza Ogahiy School of Creativity

E-mail: Dilnizad59@gmail.com

Abstract: *It is important to study foreign experience of banks' activities in the securities market, as these experiences demonstrate valuable practices for ensuring financial stability, managing risks, increasing liquidity, and improving efficiency. In turn, exploring all the opportunities offered by this market has also led to the need to analyze modern methods of raising capital in this market.*

Keywords: *Stock market, investment attractiveness, capital, financial instrument, financial market, currency, exchange rate, profit, inflation, business, dividend, emission, bond, liquidity, common stock.*

KIRISH

Tijorat banklari xalqaro moliyaviy amaliyotda nafaqat qimmatli qog'ozlar bozorida investitsiya va emissiya operatsiyalarini amalga oshiruvchi moliyaviy institutlar sifatida maydonga chiqadi, balki mazkur bozorga investorlardan, ayniqsa aholidan moliyaviy mablag'larni jalb qiluvchi va ularni samarali qayta taqsimlovchi "moliyaviy kanal" sifatida ham muhim rol o'ynaydi. Hozirgi kunda qimmatli qog'ozlar bozori global savdo platformalari orasida eng rivojlangan maydonlardan biri bo'lib, unda har kuni minglab kompaniyalar faoliyat yuritadi. Shu bilan birga, jismoniy shaxslar iqtisodiy foyda olish maqsadida o'z mablag'larini mazkur bozorga



investitsiya qilish orqali o'z ulushlarini kiritadilar. Shunday qilib, globallashuv jarayonining hozirgi bosqichida, ushbu masala nafaqat mahalliy darajada, balki xalqaro miqyosda ham tobora dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" , 2020-yil 5-oktyabrdagi PF-6079-sonli "Raqamli O'zbekiston-2030" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida, 2020-yil 12-maydagi PF-5992-sonli "2020-2025-yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to'g'risida" gi qarori va boshqa ushbu sohadagi normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga mazkur dissertatsiya ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Banklarning qimmatli qog'ozlar bozoridagi faoliyati bilan bog'liq masalalarning ayrim nazariy va amaliy jihatlarini xorijiy iqtisodchi olimlar jumladan, F.Black, M.Sholes, K.Cuthertson, D.Nitzsche, J.D.Finnerty ni keltirib o'tish mumkin. Taniqli rus olimlaridan V.A.Chernov, B.M.Raporto, A.I.Subchenko, Dj.F.Marshall, V.K.Bansal, I.A.Blank, V.V.Bocharov, M.N.Brodskiy, G.M.Brodskiy, R.U.Kolb, Z.Vorobevaning va boshqalarning ilmiy asarlarida kuzatish mumkin. Yuqorida keltirilgan xorijiy iqtisodchi olimlar va mutaxassislarining fond birjalari va banklarning qimmatli qog'ozlar bozoridagi faoliyatiga qo'shgan muhim hissalariga qaramasdan, tijorat banklarining qimmatli qog'ozlar bozoridagi operatsiyalarini tashkil etish, baholash, tartibga solish va nazorat qilish masalalarining o'ziga xos jihatlari yetarlicha e'tiborga olinmagan.

METODOLOGIYA

Tadqiqotda tijorat banklarining qimmatli qog'ozlar bozoridagi faoliyatini takomillashtirishni bir qancha mexanizmlari tadqiq qilish, amaliyotga joriy etish va qo'llash bo'yicha mavjud ilmiy adabiyotlar, hukumat qarorlari va statistika ma'lumotlari tahlil qilindi. Bu jarayonda tahlil va sintez, induksiya va deduktsiya,



korrelyatsiya va regressiya, qiyoslash va guruhlash, ekspert baholash, ilmiy abstraktsiyalash va boshqa usullar qo'llanilgan.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Global moliyaviy tizimning ajralmas qismi sifatida qimmatli qog'ozlar bozori dunyo iqtisodiyotining barqarorligi va samaradorligida muhim rol o'ynaydi. Ayniqsa, banklar ushbu bozorda yetakchi o'yinchilar hisoblanib, iqtisodiyotning kapital oqimlarini boshqarishda va investorlar uchun moliyaviy vositalarni taqdim etishda asosiy vositachilar sifatida faoliyat yuritadilar. Mazkur dissertatsiyada banklarning qimmatli qog'ozlar bozoridagi faoliyatini xorijiy mamlakatlar misolida tahlil qiladi va ularning amaliy tajribasi, o'ziga xos xususiyatlari hamda iqtisodiy samaradorligini ko'rib chiqadi.

AQSh va Yevropa Ittifoqi mamlakatlarida banklarning qimmatli qog'ozlar bozoridagi faoliyati rivojlangan va bu jarayonlarning asosi yirik moliyaviy institutlar tomonidan amalga oshiriladi. AQShda investitsiya banklari, xususan, "Goldman Sachs", "Morgan Stanley" kabi yirik banklar qimmatli qog'ozlar bozorida muhim rol o'ynaydi. Ular IPO jarayonlarini boshqarish, korporativ obligatsiyalarni chiqarish va joylashtirish, hamda murakkab moliyaviy instrumentlarni yaratishda faol ishtirok etadi.

AQSh moliya tizimi dunyodagi eng rivojlangan va diversifikatsiyalashgan tizimlardan biri hisoblanadi. Bu tizimda qimmatli qog'ozlar bozori markaziy rol o'ynaydi, va banklar ushbu bozorning asosiy o'yinchilari sifatida faoliyat ko'rsatadi. AQSHda banklar investitsiya va tijorat banklariga bo'lingan bo'lib, ularning qimmatli qog'ozlar bozoridagi rollari ham turlicha bo'lishi mumkin.

a. Investitsiya banklari.

Investitsiya banklari AQShda qimmatli qog'ozlar bozorida muhim rol o'ynaydi. Ular korporatsiyalar va hukumatlar uchun kapital jalb qilish jarayonida vositachilik qiladi. Asosiy funksiyalari quyidagilardan iborat:

IPO (Initial Public Offering): Investitsiya banklari kompaniyalar uchun birlamchi ommaviy taklif (IPO) jarayonlarini tashkil qiladi va ularni aksiyalarni birlamchi bozorga chiqarishda ko'maklashadi. Masalan, "Goldman Sachs" va



"Morgan Stanley" bu borada yirik rol o'ynaydigan investitsiya banklari sifatida tanilgan.

Obligatsiyalar chiqarish: Investitsiya banklari korporativ va davlat obligatsiyalarini chiqarish va joylashtirishda faol ishtirok etadi. Ular korporatsiyalar uchun qarz kapitalini jalb qilish jarayonlarini boshqaradi va investorlar uchun obligatsiyalarni joylashtiradi.

Savdo va vositachilik: Ular qimmatli qog'ozlar bilan savdo-sotiq operatsiyalarini amalga oshiradi, shu jumladan aksiyalar, obligatsiyalar, derivativlar bilan savdo qilish xizmatlarini ko'rsatadi. Ushbu banklar moliyaviy instrumentlar yaratish, ularni sotish va bozorda likvidlikni ta'minlashda muhim o'rin tutadi.

b. Tijorat banklari.

Tijorat banklari odatda qimmatli qog'ozlar bozorida kamroq faoliyat ko'rsatadi, lekin ular ham investitsiya qilish va qimmatli qog'ozlar portfelini boshqarish orqali bozorga kirishadi.

Ma'lumki, O'zbekiston iqtisodiyotda hozirgi vaqtda amalga oshirilayotgan tuzilmaviy o'zgarishlar, eng avvalo fond bozori bilan bevosita bog'liq bo'lib kelmoqda. Chunki Respublikada rejalashtirilgan investitsiya programmasini amalga oshirishda o'tish davriga xos bo'lgan moliyaviy resurslarning chegaralanganligi sezilmoqda. Shuning uchun ham fond bozorining qimmatli qog'ozlaridan samarali foydalanish: ularning eng qulay shakllaridan foydalanish muhim masalalardan biri bo'lib kolmoqda. Hozirgi globallashuv sharoitida fond bozorlari iqtisodiyatning asosiy tarmog'i bo'lib kelmoqda. Bundan ko'rinib turibdiki, qimmatli qog'ozlar bozorini rivojlantirish iqtisodiyotni rivojlantirish demakdir.

Hozir jahon fond bozorlari bir qancha muammoli holatlar vujudga kelmoqda. Prezidentimiz bu muammolar haqida quyidagi fikrlarini bildirganlar: - "Muhim masala - yurtimizda fond bozori, fond birjasini yanada rivojlantirish uchun Qimmatli qog'ozlar bozorini muvofiqlashtirish va rivojlantirish markazi ishini tubdan qayta tashkil etish lozim. Biz bo'sh turgan davlat mulki obyektlarini o'zaro sheriklik asosida xususiy sektorga o'tkazish bo'yicha ishlarni davom ettiramiz. Internet tarmog'ida elektron savdolar va auksionlar orqali yer uchastkalarini,



jumladan, tadbirkorlar uchun ajratishning yagona tartibini o'rnatish⁵ zarur. Shu maqsadda 2018-yildan boshlab elektron savdo maydonlari orqali davlat aktivlarini sotish bo'yicha elektron tizim tashkil etiladi. 2018-yilda bank tizimi faoliyatini rivojlantirish bo'yicha belgilangan vazifalarni amalga oshirishda banklar bilan tadbirkorlik subyektlari o'rtasida samarali va o'zaro manfaatli hamkorlik munosabatlarini ta'minlash masalalariga asosiy e'tiborni qaratish zarur. Valyuta bozorini isloh qilishga qarshi bo'lgan ayrim "ekspertlar"ning ikkilanishi va "maslahat"lariga qaramasdan, biz qisqa muddatda xalqaro standartlar asosida valyutani liberallashtirish jarayonini boshladik. Lekin biz yaxshi tushunamizki, bu ish ushbu sohadagi islohotlarning boshlanishi, xolos. Valyuta siyosati biznes va iqtisodiyotni rivojlantirish manfaatlariga to'liq xizmat qilishi, investitsiya faoliyatiga ijobiy turtki berishi lozim".⁶ Shu boisdan, Muhtaram Prezidentimiz tomonidan «2020-2025-yillarda moliya bozorini rivojlantirish strategiyasini ishlab chiqish va erkin muomaladagi jami qimmatli qog'ozlarning yalpi ichki mahsulot hajmiga nisbatini 2025-yil oxiriga qadar kamida 10-15 foizga yetkazish kun tartibidagi asosiy masala ekanligi ta'kidlandi»⁷. Bunday ustuvor va dolzarb vazifalarning samarali amalga oshirilishi mamlakatimizda moliya bozorining xususiyatlari va rivojlanish tendentsiyalarini tadqiq etish hamda moliya bozorini rivojlantirishga qaratilgan chora-tadbirlarni faollashtirish lozimligini ko'rsatmoqda. Iqtisodiyotning rivojlanishi tarixiga nazar tashlansa, moliya bozorini avvalambor insoniyat jamiyatida pulning paydo bo'lishi va u bilan bog'liq bozor munosabatlarini amalga oshirila boshlashidan shakllanishini ko'rish mumkin. Asrlar davomida moliya bozori, uning mazmuni va unga oid tushunchalar shakllanib va uzluksiz rivojlanib kelmoqda. Bunga sabab, inson tsivilizatsiyasining moliya sohasidagi tajribasini boyishi, unda shaxslarning (yuridik va jismoniy) moliyaviy munosabatlari va qiziqishlari kengayib, maqsadlari va faoliyat turlari

5 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Sh.M.Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasini o'rganish va keng jamoatchilik o'rtasida targ'ib etishga bag'ishlangan ilmiy-ommabop qo'llanma. – T.: «Ma'naviyat», 2018. 189-b.



6 O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2017-yilda amalga oshirilgan asosiy ishlar yakuni va O'zbekiston Respublikasini 2018-yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning eng ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan murojaatnomasi.

7 3Sh.M.Mirziyoyev Fond bozorini rivojlantirish masalalariga bag'ishlangan yig'ilish bayonoti. 2019-yil 7-oktyabr. <http://xs.uz/uzkr/post/fond-bozorini-rivozhlantirish-masalalari-muhokama-qilindi> ortib, manfaatlari tobora o'sib, ularning xaq-xuquqlari borgan sari mustahkamlanib va ta'minlanib borishidadir.

Xalqaro bank amaliyotida shu narsa namoyon bo'ladiki, tijorat banklarining dividend siyosatini muvaffaqiyatli tarzda amalga oshirishni ta'minlaydigan muhim omillardan biri milliy valyutaning almashuv kursi va inflyatsiya darajasini barqarorligi hisoblanadi. Har bir aktsiyador bankning ustav kapitaliga qo'ygan mablag'ining real qiymati saqlanishidan manfaatdordir. Ushbu mablag'ning real qiymati esa inflyatsiya va almashuv kursining tebranishiga bog'liq bo'ladi. Inflyatsiya darajasining oshishi va milliy valyuta almashuv kursining pasayishi milliy valyutada yozilgan aktsiyalarning real qiymatini pasayishiga olib keladi. Agar, tijorat banki tomonidan to'lanayotgan dividendlar darajasi inflyatsiya va milliy valyutaning almashuv kursini o'zgarishi natijasida pasayadigan qiymatni o'rnini qoplashga yetmasa, u holda bu bank aktsiyalariga bo'lgan talab keskin pasayadi. Bu o'z o'rnida, bankning muomaladagi aktsiyalari bozor bahosining pasayishiga va yangi aktsiyalar chiqarish hisobidan ustav kapitali hajmini oshirish imkoniyatini cheklanishiga olib keladi. Buning ustiga, aktsiyadorlarning ma'lum qismi ixtiyoridagi oddiy aktsiyalarni sotish payiga tushib qoladilar, buning natijasida bank ustav kapitalining miqdori kamayadi. Shuning uchun ham, rivojlangan xorijiy davlatlar bank amaliyotida aktsiyalarga dividend to'lashda inflyatsiya darajasi albatta hisobga olinadi. Lekin milliy valyutaning almashuv kursini dividend to'lashda hisobga olish xalqaro bank amaliyotida qo'llanilmaydi.

G'arbiy Yevropa mamlakatlari, AQSh va Yaponiyada inflyatsiyaning yillik darajasi 3 foizdan oshmaydigan mo'tadil darajasi saqlab turiladi. Shuning uchun



ham, mazkur mamlakatlarning tijorat banklari faoliyatida inflyatsiya muammosi deyarli uchramaydi.

Rivojlanayotgan mamlakatlarning asosiy qismida inflyatsiyaning nisbatan yuqori va nobarqaror darajasi saqlanib qolmoqda. Shuning uchun ham, mazkur mamlakatlarda bank aktsiyalarini qulay baholarda ikkilamchi fond bozorlarida sotish muammosi o'zining dolzarbligini saqlab turibdi. Mazkur muammolarning natijasi o'laroq, ushbu mamlakatlarda xorijiy valyutalarda yozilgan bank aktsiyalariga bo'lgan talab yuqoridir.

Rivojlanayotgan mamlakatlarda to'lov balansining surunkali defitsitga ega ekanligi milliy valyutalarning almashuv kurslarini doimiy ravishda tebranishiga sabab bo'lmoqda. Bu jarayon milliy valyutada yozilgan qimmatli qog'ozlarga qilingan investitsiyalarning real qiymatini pasayishiga sabab bo'lmoqda. Shuning uchun ham, rivojlanayotgan mamlakatlarda milliy valyuta kursining barqarorligini saqlab turish maqsadida to'lov balansining holatiga katta e'tibor berilmoqda.

O'zbekistonda tijorat banklari dividend siyosatiga inflyatsiyaning ta'siri muammosi o'zining yechimini topmoqda. Ya'ni, inflyatsiya darajasi yil sayin pasayish tendentsiyasiga ega bo'lmoqda.

Tijorat banklarining xorijiy valyutalarda amalga oshiriladigan dividend to'lovlari ular uchun ma'lum muammolarni yuzaga keltirishi mumkin. Ana shunday muammolardan biri sifatida milliy valyuta kursining pasayishi sharoitida banklarning dividendlar to'lash bilan bog'liq xarajatlarining oshishini alohida ko'rsatish mumkin. Bunda, banklarning dividend to'lash maqsadidagi xarajatlarining umumiy hajmi oshadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tijorat banklarining qimmatli qog'ozlar bozoridagi faoliyati mamlakat iqtisodiyotida markaziy o'ringa ega bo'lib, moliyaviy tizimning barqarorligi va umumiy iqtisodiy rivojlanishga katta ta'sir ko'rsatadi. Banklarning bu sohadagi faoliyati turli yo'nalishlarda namoyon bo'lib, ular qimmatli qog'ozlar bozori orqali iqtisodiyotni qo'llab-quvvatlash, moliyaviy resurslarni samarali taqsimlash, likvidlikni ta'minlash hamda iqtisodiy subyektlar uchun moliyaviy xizmatlar



ko'rsatish bilan shug'ullanadi. Ushbu jihatlar banklarning qimmatli qog'ozlar bozoridagi ahamiyatini va ularning iqtisodiyotni qo'llab-quvvatlashdagi rolini yanada kuchaytiradi.

Birinchidan, tijorat banklari investitsion faoliyat orqali qimmatli qog'ozlar bozorida faol ishtirok etadi. Ular mijozlarga investitsiya qilish bo'yicha maslahatlar berish, investitsiya portfellari yaratish va boshqarish xizmatlarini ko'rsatadi. Bu orqali banklar mijozlarga qimmatli qog'ozlar bozorida samarali qarorlar qabul qilishda yordam beradi va shu tariqa moliyaviy resurslarning to'g'ri taqsimlanishini ta'minlaydi. Ushbu investitsion faoliyat banklarga ham, ularning mijozlariga ham foyda keltiradi, chunki ularning birgalikdagi ishtiroki qimmatli qog'ozlar bozorining barqarorligini mustahkamlaydi va umumiy iqtisodiy o'sishga xizmat qiladi.

kkinchidan, tijorat banklari qimmatli qog'ozlar chiqarish (emissiya) va joylashtirish jarayonlarida ham muhim rol o'ynaydi. Ular korporativ obligatsiyalar va aksiyalar chiqarishda ishtirok etib, korporatsiyalarga moliyaviy resurslarini kengaytirishga va yangi loyihalarni moliyalashtirishga imkon yaratadi. Bu jarayonda banklar korporativ mijozlarga qimmatli qog'ozlarni chiqarishning eng qulay strategiyalarini ishlab chiqishda yordam beradi, shuningdek, qimmatli qog'ozlarni bozor ishtirokchilari orasida joylashtirishni ta'minlaydi. Bu esa korporatsiyalar uchun moliyaviy barqarorlikni saqlashda muhim ahamiyat kasb etadi, chunki ular yangi loyihalarni moliyalashtirish orqali o'z faoliyatlarini kengaytiradi va rivojlantiradi.

Uchinchidan, banklarning qimmatli qog'ozlar bozorida likvidlikni ta'minlashdagi roli ham katta ahamiyatga ega. Banklar qimmatli qog'ozlarni sotib olish va sotishda faol ishtirok etib, bozorning likvidligini ta'minlaydi. Bu esa bozorning barqarorligini saqlashda muhim omil bo'lib, qimmatli qog'ozlarning tezda pulga aylantirilishi va investorlar uchun ishonchli savdo muhitini yaratadi. Banklar tomonidan ta'minlanadigan likvidlik iqtisodiyotning umumiy barqarorligini mustahkamlaydi va moliyaviy resurslarning erkin harakatlanishini ta'minlaydi, bu esa iqtisodiy faoliyatning barqaror va izchil rivojlanishiga xizmat qiladi.



Xulosa o'rnida ta'kidlash lozimki, Rivojlangan xorijiy mamlakatlarda moliya bozori orqali, bir tomondan davlat korxona va tashkilotlar, aholi o'zlari uchun zarur bo'lgan mablag'ni jalb qilsalar, ikkinchi tomondan korxona, tashkilot va aholi o'zlarining vaktincha bo'sh turgan pul mablag'larini qimmatbaho qog'ozlar sotib olishga yo'naltirib foyda ko'radilar. Bu esa moliyaviy resurslarning harakatini ta'minlab, iqtisodiy o'sishga turtki beradi. Moliya bozorining investitsion faolligini oshirish, nafaqat, aktivlar qiymati va savdo hajmlarining o'sishi bilan birga olib borilishi kerak, balki qimmatli qog'ozlar bozorining barcha ishtirokchilari faoliyati ta'minlanishi zarur. Qimmatli qog'ozlar bozorini rivojlantirish moliyaviy resurslarni faollashtirishga, ulardan oqilona foydalanishga va iqtisodiy rivojlanishni bir muncha tezlashtirish uchun qayta taqsimlashga yo'naltirish maqsadga muvofiqdir.

Banklarining investitsion operatsiyalari hisobidan oladigan daromadlari kreditlar hisobidan oladigan foiz to'lovlariga nisbatan past, emission operatsiyalari bo'yicha xarajatlar muddatli depozitlarga to'lanadigan to'lovlar hajmidan yuqori bo'lsada, banklar ushbu operatsiyalarni bajarishi aktivlarni diversifikatsiya qilish, barqaror va uzoq muddatli daromad olib turish, kutilmagan hollarda likvidlik bilan bog'liq muammoni hal qilish, qimmatli qog'ozlarning garovi ostida kredit

Tijorat banklari qimmatli qog'ozlar bozoridagi emitent, investor yoki vositachi sifatidagi ishtirokiga iqtisodiyotdagi inflyatsiya darajasining bevosita ta'siri yuqori bo'lib, banklar qimmatli qog'ozlar bozorida emitent sifatida qatnashganida inflyatsiya darajasini inobatga olishi lozim.

Tijorat banklarining qimmatli qog'ozlar bozoridagi andarrayting faoliyatini rivojlantirish maqsadga muvofiq. Banklar ushbu operatsiyalarni amalga oshirish orqali, birinchidan qimmatli qog'ozlar bozori muhitini yaratishga va rivojlanishiga hissa qo'shadi, ikkinchidan tegishli daromadlarni shakllantiradi hamda o'zlarining qimmatli qog'ozlar operatsiyalariga bozorda ishonchni mustahkamlaydi va moliyaviy resurslarini samarali joylashtirish imkoniyatiga ega bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. <https://lex.uz/>



2. O‘zbekiston Respublikasi prezidentining murojaatnomasini o‘rganish va keng jamoatchilik o‘rtasida targ‘ib etishga bag‘ishlangan ilmiy-ommabop qo‘llanma. – T.: “Ma’naviyat”, 2018. 189-b.
3. Allayarov, S. A. (2020). Strengthening tax discipline in the tax security system: Features and current problems. South Asian Journal of Marketing & Management Research, 10(11), 124-128. 3. Allayarov, S., Allayarov, S., Yuldasheva, U., & Madjidov, N. (2020). Assessment of the effectiveness of the results of the fiscal policy of the republic of Uzbekistan. International Journal of Advanced Science and Technology, 29(7), 7920- 7926. "Science and Education" Scientific Journal / Impact Factor 3.848 (SJIF) January 2023 / Volume 4 Issue 1 www.openscience.uz / ISSN 2181-0842 963
4. Сатторов, Б. К., & Аллаяров, С. Р. (2017). Развитие экономики Узбекистана в условиях мировых интеграционных процессов. Наука, техника и образование, 1(5 (35)), 98-100.
5. V.A.Galanov, A.I.Basov «Рынок сменных бумаг», Москва «Finansы statistika», 2005.,9-10b.
6. B.A.Koltynyuk «Рынок сменных бумаг», Sankt-Peterburg, 2001g., 76-93b.
7. Niyozmetov, D. (2025, January). FOREIGN EXPERIENCE OF COMMERCIAL BANKS IN THE SECURITIES MARKET. In International Conference of Economics, Finance and Accounting Studies (Vol. 13, pp. 59-60).
8. Niyozmetov, D. (2024). ACTIVITIES AND SPECIFICS OF COMMERCIAL BANKS IN THE SECURITIES MARKET. In International Conference of Economics, Finance and Accounting Studies (Vol. 11, pp. 57-58).
9. Ниязметов, Д. (2024). ПРОБЛЕМЫ БАНКОВ С ОПЕРАЦИЯМИ НА РЫНКЕ ЦЕННЫХ БУМАГ И ПУТИ ИХ ПРЕОДОЛЕНИЯ. Экономическое развитие и анализ, 2(10), 159-165.
10. Niyozmetov, D. (2024). ACTIVITIES AND SPECIFICS OF COMMERCIAL BANKS IN THE SECURITIES MARKET. In International Conference of Economics, Finance and Accounting Studies (Vol. 11, pp. 57-58).



11. Niyozmetov, D. R. (2023). THE WAYS OF ASSESSING COMPETITION BETWEEN COMMERCIAL BANKS. International Journal Of Management And Economics Fundamental, 3(09), 45-50.